



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'YIY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdulkarimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Narzulloeva Fariza Akmalевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatramov Anvar Chorshanbiyevich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI	76
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEKANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI	117
G'afforov Kamronbek “O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI” AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILIIY KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To'xtayevich RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli “suv ta'minot servis” AJ misolida).....	160
Doniyorova M. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi SUN'Y INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODELII (EVCII)	169
Xaydarova Malika Shokirjon qizi ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ	174
Нодира Илхамовна Саидахмедова Жамалиддин Ярашевич Нуриллаев THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES.....	181
Allaberganov Zakir Gaibovich Alimova Guzal Abdukhakimovna BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELII.....	188
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	



AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	196
Xamroyev Anvar Ashurovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH	202
Ismaylov Kuvatbay Sarsenbayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	206
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH	212
Hamroyeva Feruza Azizjon qizi	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	217
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	226
Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li	
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI.....	231
Nurmatov Samandar G'ayratovich	
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR (FDI)NING ROLI VA UNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARI	238
Bau Long	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ КОМПЛЕКС РЕГИОНА КАК ОБЪЕКТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	244
Ahrarova Shodiyxon Ja'farxon kizi	
PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING KOMPLEKS USLUBIYATI	247
Djurayev Davlat Djonibekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI	250
Raxmanova Laylo Baxodirovna	
SOLIQ QARZDORLIGINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SUBYEKTLAR MOLİYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	256
Payziyev Hamid Orziqulovich	
PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	260
A.A. Ismailov	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI	266
Elmurodov Shohzod Shavkatovich	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATI — MILLIY IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY INSTRUMENTI SIFATIDA.....	272
A.A. Ismailov	
ETNOGRAFIK RESURSLARDAN FOYDALANISHNING STRATEGIK BOSHQARUV TAMOYILLARI ASOSIDA TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	278
Axmedov Ikrom Akramovich	
O'ZBEKISTON TASHKILOTLARIDA UCHRAYDIGAN BOSHQARUV MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI	285
Abiyev Jahongir Ne'matovich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY MODEL VA ILMIY YONDASHUVLARI.....	290
Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich	



O'ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQAMLI SALOHİYATINI BAHOLASH: RSI INDEKSI ASOSIDA ILMIY TAHLIL	294
Odinayev Nuriddin Ramozon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY QIMMATLI QOG'OZLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	300
Hakimov Ikrom Izzatillo o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA STRATEGIK ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	305
Amanov Akram Mirzayevich	
FOND BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI INVESTITSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	310
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'ZBEKISTONDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH JARAYONINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI TAHLILI	316
Atakulov Askad Raimkulovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 KONSEPSIYASINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	322
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ «ЗЕЛЕННЫХ» ТЕХНОЛОГИЙ В ЖИЛИЩНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА	326
Tojievа Dильфуза Бобомуратовна	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOYIY TARMOQLAR MARKETINGIDAN FOYDALANISH YO'LLARI	334
Baltabayev Hurrambek To'liqinovich	
METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOYIY NATIJALARI	341
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA SANOAT TARMOG'INING ROLINI STATISTIK O'RGANISH	354
To'rayeva Zilola Turg'unovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA BANKLAR: BIZNES TAHLILI VA STRATEGIK USTUNLIK MEXANIZMLARI	361
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Ibragimova Iroda Rashid qizi	
To'lovov Erkinjon To'liqin o'g'li	
QQS, FOYDA VA DAROMAD SOLIG'I STAVKALARINING BARQARORLIGI	367
Aripova Aziza Alisherovna	
YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	372
Xudoyberdiyev Diyorbek Norqobil o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SIRKULAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRASION MODEL VA BAHOLASH INDIKATORLARI	378
Yuldashev Shuxrat Ganiyevich	
O'ZBEKISTON KICHIK VA O'RTA KORXONALARI ORASIDA EKO-MARKETING TO'SIQLARI	383
Gulsara Ostonaqulova	
Erkinova Shoxista Bekzod qizi	
YAXSHI KORPORATIV BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI	394
Urinov Bobur Nasilloevich	
O'ZBEKISTONDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI	399
Qutlimurotov Fayzullo Sa'dulayevich	



O'ZBEKISTONDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Qutlimurotov Fayzullo Sa'dulayevich
Sarbon universiteti, Iqtisodiyot va servis
kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: fayzula2023@mail.ru

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekistonda turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda ushbu jarayonda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Jahon turizm bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning turoperatorlik tizimi, turistik mahsulotlarni shakllantirish mexanizmlari, raqamli texnologiyalarni joriy etish, marketing strategiyalari va xizmatlar sifatini boshqarish tajribalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida O'zbekistonda turoperatorlik faoliyatining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish, turistik xizmatlar eksportini kengaytirish hamda xalqaro standartlar asosida samarali faoliyat yuritish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turoperatorlik faoliyati, turizm industriyasi, xorijiy tajriba, turistik mahsulot, innovatsion boshqaruv, raqamli texnologiyalar, marketing strategiyasi, turizm eksporti, raqobatbardoshlik, turistik xizmatlar.

Аннотация

В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты развития тuroperatorской деятельности в Узбекистане, а также возможности использования передового зарубежного опыта в данном процессе. Проанализированы особенности функционирования тuroperatorских систем ведущих туристических стран мира, механизмы формирования туристского продукта, внедрение цифровых технологий, маркетинговые стратегии и методы управления качеством услуг. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение конкурентоспособности тuroperatorской деятельности в Узбекистане, внедрение инновационных методов управления, расширение экспорта туристских услуг и обеспечение эффективной деятельности в соответствии с международными стандартами.

Ключевые слова: тuroperatorская деятельность, туристская индустрия, зарубежный опыт, туристский продукт, инновационное управление, цифровые технологии, маркетинговая стратегия, экспорт туристских услуг, конкурентоспособность, туристские услуги.

Abstract

This article examines the theoretical and practical aspects of developing tour operator activities in Uzbekistan and explores the possibilities of utilizing advanced international experience in this field. The study analyzes the operational models of tour operator systems in leading tourism destinations, mechanisms for tourism product development, the implementation of digital technologies, marketing strategies, and service quality management practices. Based on the research findings, scientific and practical recommendations have been developed to enhance the competitiveness of tour operator activities in Uzbekistan, introduce innovative management approaches, expand tourism service exports, and ensure effective operations in accordance with international standards.

Keywords: tour operator activity, tourism industry, international experience, tourism product, innovative management, digital technologies, marketing strategy, tourism exports, competitiveness, tourism services.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushining ortib borishi turizm industriyasining strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Xususan, turizmning asosiy subyektlaridan biri hisoblangan turoperatorlar turistik mahsulotlarni shakllantirish, turistik xizmatlar zanjirini integratsiyalash, yangi marshrutlarni ishlab chiqish hamda ichki va xalqaro turizm bozorlarida talabni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy turizm



bozorida turoperatorlik faoliyati nafaqat turistlarga kompleks xizmatlar paketini taqdim etish, balki hududlarning turistik jozibadorligini oshirish, turizm eksportini kengaytirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda [1,2].

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizmni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, vizasiz rejimni kengaytirish, transport-logistika tizimini takomillashtirish hamda turistik xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar mamlakatning xalqaro turizm bozorida mavqei mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq turoperatorlik faoliyatida raqamli texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani, xalqaro marketing strategiyalarining cheklanganligi, innovatsion turistik mahsulotlar ulushining pastligi va global distribyutsiya tizimlari bilan integratsiya darajasining sustligi tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda [3].

Mazkur sharoitda turizm rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, ularning turoperatorlik faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini tahlil qilish hamda milliy turizm tizimiga moslashtirish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat [4].

Yevropa davlatlari jahon turizm bozorida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ayniqsa, Germaniya va Fransiya turoperatorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha boy tajribaga ega. Ushbu davlatlarda turizm sohasining rivojlanishi yuqori darajadagi xizmat sifati, kuchli raqobat muhiti va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari bilan tavsiflanadi [5].

Germaniyada turoperatorlik bozori yuqori darajada konsolidatsiyalashgan bo'lib, yirik kompaniyalar yetakchi rol o'ynaydi. Turoperatorlik faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri — raqamli texnologiyalardan keng foydalanishdir. Onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv dasturlari orqali mijozlarga qulaylik yaratiladi. So'nggi yillarda Germaniyada barqaror va ekologik turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Fransiyada turoperatorlik faoliyati ko'proq madaniy, tarixiy va gastronomik turizmga yo'naltirilgan. Bu davlatda hududiy turizmni rivojlantirish siyosati samarali yo'lga qo'yilgan bo'lib, har bir hudud o'ziga xos turistik mahsulotni taklif etadi. Turoperatorlar mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda hududiy brendlarni shakllantiradi va xalqaro bozorda targ'ib qiladi.

Yevropa tajribasining muhim jihatlardan biri – iste'molchilar huquqlarini qat'iy himoya qilish tizimidir. Turoperatorlar moliyaviy kafolatlar va sug'urta mexanizmlari orqali sayyohlarning xavfsizligini ta'minlaydi. Bu esa aholining turizm xizmatlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turoperatorlik faoliyatining nazariy va metodologik asoslari turizm iqtisodiyoti va menejmenti sohasidagi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, turizmni boshqarish va turistik mahsulotlarni shakllantirish masalalari bo'yicha C. Cooper, J. Fletcher, D. Gilbert, A. Fyall va S. Wanhillarning ilmiy ishlari muhim nazariy manba hisoblanadi. Ular turoperatorlik faoliyatini turistik xizmatlarni birlashtiruvchi va bozorga kompleks mahsulot sifatida taklif etuvchi tizim sifatida baholab, uning turizm industriyasidagi integratsion rolini asoslab berganlar [6,7].

R. Mill va A. Morrison tadqiqotlarida turoperatorlarning turizm bozorida vositachilik faoliyati, turistik mahsulotlar qiymat zanjiri va iste'molchilar talabini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Mualliflar zamonaviy turizm bozorida turoperatorlar raqobatbardoshligining asosiy omili sifatida innovatsion marketing texnologiyalari va mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv tizimlarini e'tirof etadilar.

Turizmni raqamlashtirish va elektron tijoratning rivojlanishi sharoitida turoperatorlik faoliyatining transformatsiyasi masalalari Buhalis tomonidan chuqur o'rganilgan. Tadqiqotlarda onlayn bronlashtirish tizimlari, global distribyutsiya tarmoqlari (GDS), sun'iy intellekt va raqamli marketing vositalarining turistik kompaniyalar faoliyati samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Muallifning fikricha, raqamli transformatsiya turoperatorlarning xalqaro bozordagi raqobat ustunligini belgilovchi asosiy omillardan biridir [8,9].

MDH mamlakatlari olimlaridan A.Yu. Aleksandrova, V.A. Kvartalnov, I.V. Zorin va V.A. Kvarsenko tomonidan turizm industriyasining institutsional rivojlanishi, turistik korxonalar boshqaruvi hamda turoperatorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi masalalari tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlari turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro standartlarni joriy etish turoperatorlik faoliyatining barqaror rivojlanish omillari sifatida ko'rsatilgan (1-jadval).



1-jadval

Turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi va ularni O'zbekiston amaliyotiga joriy etish imkoniyatlari¹

Mamlakat	Turoperatorlik faoliyatining o'ziga xos jihatlari	Erishilgan natijalar	O'zbekiston uchun ahamiyati
Germaniya	Turoperatorlar va turagentlar o'rtasidagi integratsiyalashgan boshqaruv tizimi, yuqori darajadagi xizmat standartlari	Yevropadagi eng yirik outbound turizm bozori shakllangan	Xizmatlar sifatini sertifikatlashtirish va standartlashtirish tizimini rivojlantirish
Turkiya	Davlat-xususiy sheriklik asosida turizm mahsulotlarini shakllantirish va xalqaro marketing kampaniyalari	Turistlar oqimi va turizm eksporti hajmi sezilarli oshgan	Milliy turistik brendlarni targ'ib qilish va marketing strategiyalarini takomillashtirish
Ispaniya	Raqamli bronlashtirish platformalari va destinatsion menejment tizimlarining keng qo'llanilishi	Turistik xizmatlar samaradorligi va turistlar qoniqish darajasi oshgan	Turoperatorlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish
BAA	Premium va tematik turizm paketlarini ishlab chiqish, innovatsion xizmatlar	Yuqori daromadli turistlar segmenti shakllangan	Yuqori qo'shilgan qiymatga ega turistik mahsulotlarni yaratish
Singapur	Turizm raqamlashtirish, sun'iy intellekt va "Smart Tourism" texnologiyalaridan foydalanish	Turistik xizmatlar sifati va boshqaruv samaradorligi oshgan	Aqlli turizm texnologiyalarini joriy etish va ma'lumotlar bazasini integratsiyalash
Fransiya	Madaniy meros, gastronomiya va tematik turlarni kompleks paketlash	Turizm daromadlari va turistlarning o'rtacha qolish muddati oshgan	Madaniy va gastronomik turizm paketlarini diversifikatsiya qilish
Yaponiya	Mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlikda turistik mahsulotlarni ishlab chiqish	Barqaror turizm va hududiy rivojlanish ta'minlangan	Hududiy turoperatorlik faoliyatini rivojlantirish va mahalliy aholini jalb qilish
Mamlakat	Turoperatorlik faoliyatining o'ziga xos jihatlari	Erishilgan natijalar	O'zbekiston uchun ahamiyati

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan turizm mamlakatlarida turoperatorlik faoliyatining muvaffaqiyati asosan raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, xizmatlar sifatini standartlashtirish, innovatsion turistik mahsulotlarni shakllantirish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish bilan izohlanadi. Mazkur tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish turoperatorlik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, turizm eksportini kengaytirish va mamlakatning xalqaro turizm bozorida mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonlik olimlardan R.S. Qosimov, M.T. Alimova, A. Soliyev, B. Tuxliyev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan turizm industriyasini rivojlantirish, turistik xizmatlar bozorini takomillashtirish, turizm eksportini kengaytirish hamda turizm korxonalarining boshqaruv mexanizmlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda xorijiy mamlakatlarning ilg'or turoperatorlik tajribalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlik asosida turoperatorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, xorijiy tajribalarni tizimli tahlil qilish va ularni O'zbekiston turoperatorlik faoliyatini rivojlantirish amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi. O'zbekiston uchun Germaniya va Fransiya tajribasi quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega:

- raqamli turoperatorlik tizimlarini rivojlantirish;
- hududiy turizm mahsulotlarini yaratish;
- xizmat sifati va mijozlar ishonchini oshirish.

1 Xorijiy adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi.



Turkiya so'nggi yigirma yilliklarda jahon turizm bozorida eng tez rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Turkiya turoperatorlik faoliyatining muvaffaqiyati davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikka asoslangan. Davlat tomonidan yaratilgan qulay investitsion muhit, soliq imtiyozlari va infratuzilma loyihalari turoperatorlik faoliyatining kengayishiga zamin yaratdi.

Turkiyada "all inclusive" tizimi keng joriy etilgan bo'lib, bu ommaviy turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizim orqali turoperatorlar sayyohlarga oldindan belgilangan narx asosida to'liq xizmatlar paketini taklif etadi. Natijada, turistlar uchun qulaylik, turoperatorlar uchun esa barqaror daromad manbai yaratiladi.

Osiyo mamlakatlari orasida Malayziya va Indoneziya turoperatorlik faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilg'or tajribaga ega. Malayziyada musulmon turizmi, ekologik turizm va oilaviy dam olish yo'nalishlari ustuvor hisoblanadi. Turoperatorlar xizmatlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etib, mijozlar ehtiyojiga moslashuvchan yondashuvni qo'llaydi. Osiyo tajribasining yana bir muhim jihati – marketing strategiyalaridir. Raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar va xalqaro ko'rgazmalar orqali turistik mahsulotlar keng targ'ib qilinadi. Bu esa turoperatorlik faoliyatining samaradorligini oshiradi. O'zbekiston uchun Turkiya va Osiyo mamlakatlari tajribasi quyidagilar bilan ahamiyatlidir:

- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish;
- ommaviy va tematik turizmni uyg'unlashtirish;
- marketing va reklama faoliyatini kuchaytirish.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish turoperatorlik faoliyatining samaradorligini oshiradi. Turkiya va Yevropa davlatlarida davlat infratuzilmani rivojlantirsa, xususiy sektor xizmatlar sifatini oshirishga e'tibor qaratadi.

O'zbekiston sharoitida ham davlat-xususiy sheriklik asosida yangi turistik yo'nalishlarni rivojlantirish mumkin. Jumladan, ziyorat turizmi, ekologik turizm, gastronomik va etnoturizm yo'nalishlari xorijiy turistlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Turoperatorlar ushbu yo'nalishlar bo'yicha maxsus turpaketlar ishlab chiqishi lozim.

Turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish orqali turoperatorlar mavsumiylik muammosini kamaytirishi mumkin. Xorijiy tajribaga asoslanib, yil davomida faoliyat yurituvchi turistik yo'nalishlarni yaratish O'zbekiston turizm sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

AQSh turoperatorlik bozorida yuqori raqobat va innovatsion yondashuvlar bilan ajralib turadi. Ushbu davlatda turoperatorlik faoliyati asosan xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladi. Bozor talabiga tez moslashish, xizmatlarni individuallashtirish va mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni yo'lga qo'yish AQSh turoperatorlarining asosiy ustunliklaridan biridir. So'nggi yillarda AQShda onlayn platformalar orqali turistik mahsulotlarni sotish keng tarqaldi. CRM tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi tavsiyalar va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali turoperatorlar mijozlar ehtiyojini oldindan aniqlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu tajriba O'zbekiston turoperatorlari uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

Yaponiya turoperatorlik modeli esa xizmat sifati, aniqlik va mijozga sadoqat tamoyillariga asoslangan. Yaponiyada har bir turistga individual yondashuv qo'llaniladi va xizmatlar yuqori intizom bilan tashkil etiladi. Turoperatorlar xizmat ko'rsatishda milliy madaniyat va an'analarni inobatga olgan holda faoliyat yuritadi.

Yaponiya tajribasining yana bir muhim jihati – xavfsizlik va mas'uliyatdir. Turistik marshrutlar, transport va joylashtirish xizmatlari qat'iy nazorat qilinadi. Bu esa sayyohlar ishonchini mustahkamlaydi. AQSh va Yaponiya tajribasini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- innovatsion texnologiyalar turoperatorlik faoliyatining samaradorligini oshiradi;
- xizmat sifati va mijozlar bilan munosabat muhim ahamiyatga ega;
- milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda turistik mahsulot yaratish zarur.

Zamonaviy turizm sanoatida raqamli texnologiyalar turoperatorlik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish orqali xizmat ko'rsatish sifati oshadi, xarajatlar qisqaradi va mijozlar bilan samarali aloqa yo'lga qo'yiladi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda turizm sohasini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Turoperatorlik faoliyatida onlayn bronlash tizimlarini joriy etish sayyohlar uchun qulaylik yaratadi. Xususan, Germaniya va AQSh tajribasida turoperatorlar yagona platforma orqali mehmonxona, transport va ekskursiya xizmatlarini taklif etadi. Ushbu tajribani O'zbekiston sharoitida qo'llash orqali xorijiy turistlar oqimini oshirish mumkin. Shuningdek, raqamli marketing vositalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va mobil ilovalar orqali turistik mahsulotlarni targ'ib qilish turoperatorlar raqobatbardoshligini oshiradi. Sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari asosida mijozlar ehtiyojini aniqlash xorijiy tajribada keng qo'llanilmoqda va bu yondashuv O'zbekistonda ham istiqbolli



hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmat sifati va kadrlar salohiyatini oshirish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish turoperatorlik faoliyatining asosiy muvaffaqiyat omillari hisoblanadi. Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali milliy turizm bozorining raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Qisqacha qilib aytganda, turoperatorlik faoliyati turizm sanoatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samarali tashkil etilishi mamlakat iqtisodiy rivojiga sezilarli hissa qo'shadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini baholash maqsadida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil hamda ekonometrik modellashirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro turizm tashkilotlari, turizm bo'yicha ilmiy adabiyotlar, turizm statistikasi hamda rivojlangan turizm mamlakatlarining turoperatorlik faoliyati bo'yicha ma'lumotlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida Germaniya, Turkiya, Ispaniya, Singapur va Birlashgan Arab Amirliklari turoperatorlik tizimlarining institutsional xususiyatlari o'rganilib, ularning samaradorlik ko'rsatkichlari O'zbekiston turizm sektori bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil davomida turoperatorlik faoliyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi (X_1), marketing xarajatlari ulushi (X_2), turistik mahsulotlar diversifikatsiyasi indeksi (X_3) va xalqaro hamkorlik ko'lami (X_4) tanlab olindi.

Mazkur omillarning turizm eksporti hajmiga ta'sirini aniqlash maqsadida quyidagi ko'p omilli regressiya modeli shakllantirildi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \varepsilon$$

bu yerda:

- Y – turizm eksporti hajmi;
- X_1 – raqamlashtirish darajasi;
- X_2 – marketing faoliyati ko'lami;
- X_3 – turistik mahsulotlar diversifikatsiyasi;
- X_4 – xalqaro hamkorlik darajasi;
- ε – tasodifiy xatolik.

Model parametrlarini baholashda eng kichik kvadratlar usuli (OLS) qo'llanildi hamda natijalarning statistik ahamiyatligi Student t-mezone va Fisher F-mezone orqali tekshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan ekonometrik tahlil natijalari turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar orasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish eng yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Hisob-kitoblarga ko'ra, modelning determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,87$ ni tashkil etib, natijaviy ko'rsatkichdagi o'zgarishlarning 87 foizi modelga kiritilgan omillar hisobiga izohlanishini ko'rsatdi.

Regressiya natijalariga ko'ra, raqamlashtirish darajasining 1 foizga oshishi turizm eksporti hajmining o'rtacha 0,42 foizga, marketing faoliyatining kengayishi 0,31 foizga, turistik mahsulotlar diversifikatsiyasining ortishi esa 0,47 foizga o'sishiga xizmat qilishi aniqlandi. Xalqaro hamkorlik ko'rsatkichining oshishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, turizm eksporti hajmini o'rtacha 0,28 foizga oshirishi kuzatildi.

Ekonometrik model natijalariga ko'ra quyidagi tenglama hosil qilindi:


$$Y = 1,56 + 0,42X_1 + 0,31X_2 + 0,47X_3 + 0,28X_4$$

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, turoperatorlik faoliyatida innovatsion va diversifikatsion yondashuvlarni keng joriy etish turizm eksporti hajmini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, turistik mahsulotlar diversifikatsiyasi koeffitsiyentining eng yuqori qiymatga ega bo'lishi turistlar talabiga mos yangi turpaketlar va tematik turlarni ishlab chiqish zarurligini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval
Turoperatorlik faoliyatini rivojlantirish omillarining ekonometrik baholash natijalari²

Omillar	Koeffitsiyent (β)	Ta'sir darajasi
Raqamlashtirish darajasi (X_1)	0,42	Yuqori
Marketing faoliyati (X_2)	0,31	O'rta
Turistik mahsulotlar diversifikatsiyasi (X_3)	0,47	Eng yuqori
Xalqaro hamkorlik darajasi (X_4)	0,28	O'rta

Olingan natijalar Germaniya va Ispaniya tajribasida raqamli platformalar orqali turistik mahsulotlarni sotish, Turkiyada davlat-xususiy sheriklik asosida marketing faoliyatini rivojlantirish hamda Singapurda "Smart Tourism" texnologiyalarini joriy etish amaliyotlari bilan mos keladi. Ushbu mamlakatlarda turoperatorlik faoliyatining samaradorligi zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, innovatsion marketing vositalari va xizmatlar diversifikatsiyasi orqali ta'minlanayotganligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Turoperatorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar³.

Tahlil natijalari asosida O'zbekistonda turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida turistik xizmatlarni raqamlashtirish, xalqaro onlayn bronlashtirish tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish, innovatsion turistik mahsulotlar ulushini oshirish hamda xorijiy turoperatorlar bilan strategik hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Mazkur chora-tadbirlar milliy turizm mahsulotlarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, turistlar oqimini ko'paytirish va turizm eksportidan olinadigan daromadlarni sezilarli ravishda oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy turizm bozorida turoperatorlik faoliyati turistik mahsulotlarni shakllantirish, turizm xizmatlarini integratsiyalash hamda turizm eksportini rivojlantirishning muhim institutsional mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Jahonning rivojlangan turizm mamlakatlari tajribasi tahlili turoperatorlik faoliyatining samaradorligi, avvalo, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, xalqaro marketing faoliyatini kuchaytirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish bilan bog'liqligini ko'rsatdi.

O'tkazilgan ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, turoperatorlik faoliyati rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida turistik mahsulotlar diversifikatsiyasi ($\beta=0,47$) va raqamlashtirish darajasi ($\beta=0,42$) eng yuqori ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shuningdek, marketing faoliyati ($\beta=0,31$) hamda xalqaro hamkorlik ko'lamini ($\beta=0,28$) ham turizm eksportining o'sishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlandi. Modelning determinatsiya

² Tadqiqot asosida muallif ishlanmasi.

³ Tadqiqot asosida muallif ishlanmasi.



koeffitsiyenti $R^2=0,87$ ni tashkil etgani tadqiqot natijalarining yuqori ishonchlilik darajasiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida Germaniya, Turkiya, Ispaniya, Singapur va Birlashgan Arab Amirliklari tajribalarini tahlil qilish asosida O'zbekistonda turoperatorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida raqamli transformatsiyani jadallashtirish, innovatsion turistik mahsulotlarni ko'paytirish, xalqaro bronlashtirish tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish va xorijiy turoperatorlar bilan hamkorlikni kengaytirish zarurligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- O'zbekistonda turoperatorlik faoliyatini raqamlashtirish maqsadida yagona milliy onlayn bronlashtirish va turpaketlarni sotish platformasini yaratish hamda uni xalqaro GDS tizimlari bilan integratsiyalash zarur.

- Turistik mahsulotlar diversifikatsiyasini ta'minlash maqsadida gastronomik, ekoturizm, geoturizm, agrar turizm, ziyorat turizmi va sarguzasht turizmi yo'nalishlarida yangi kompleks turpaketlarni ishlab chiqish lozim.

- Turkiya tajribasi asosida milliy turizm mahsulotlarini xalqaro bozorlarda targ'ib qilish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida marketing fondini tashkil etish maqsadga muvofiq.

- Xorijiy turoperatorlar bilan strategik hamkorlikni kengaytirish orqali O'zbekistonning turistik yo'nalishlarini yirik xalqaro turpaketlar tarkibiga kiritish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

- Turoperatorlik korxonalarida sun'iy intellekt, Big Data va CRM texnologiyalaridan foydalanishni rag'batlantirish orqali turistlarning xulq-atvori va talabini prognozlash tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

- Turoperatorlik faoliyati subyektlarini xalqaro standartlar asosida sertifikatlashtirish va xizmatlar sifatini baholashning zamonaviy monitoring tizimini yaratish lozim.

- Turizm oliy ta'lim muassasalari va turoperatorlik korxonalarida o'rtasida dual ta'lim tizimini rivojlantirish hamda xalqaro tajribaga ega mutaxassislarni tayyorlash dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

- Turoperatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida innovatsion turistik mahsulotlar ishlab chiqayotgan korxonalar uchun soliq va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston turoperatorlik korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, turistlar oqimini ko'paytirish, turizm eksportidan tushadigan daromadlarni kengaytirish hamda mamlakatning jahon turizm bozorida mavqeiini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cooper C., Fletcher J., Fyall A., Gilbert D., Wanhill S. *Tourism: Principles and Practice*. – 6th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2019. – 565 p.

2. Morrison A.M. *Marketing and Managing Tourism Destinations*. – 2nd ed. – New York: Routledge, 2022. – 768 p.

3. Mill R.C., Morrison A.M. *The Tourism System: An Introductory Text*. – 8th ed. – Dubuque: Kendall Hunt Publishing, 2020. – 512 p.

4. Buhalis D. *eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management*. – London: Pearson Education, 2003. – 376 p.

5. Dostonbek, T. D. (2026). Push and Pull Motivations for Participation in Adventure Tourism: Foreign Tourist Perspectives. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 7(1), 436-445.

6. Александрова А.Ю. *Международный туризм: учебник*. – М.: КНОРУС, 2021. – 470 с.

7. Квартальнов В.А. *Туризм: теория и практика*. – М.: Финансы и статистика, 2018. – 320 с.

8. Tuxliyev B.Sh., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. *Turizm asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 384 b.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. *O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari*. – Toshkent, 2025. – 156 b. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mitayangiliklar/66309-2025-jilda-zbekistonga-11-7-million-nafar-turist-kelgan-2>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>